

**2.Kasb-hunar ta'limini tashkil qilish shakllari.**

Ta'lim jarayoni ishtirokchilari (O'qituvchi va tahsil oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ta'limning tashkiliy shaklini anglatadi.

Kishilik jamiyatining taraqqiyot etish davrida ta'limning tashkiliy shakllari turlicha bo'lgan.

Qadimgi paytlarda yakka tartibda o'qitish keng tarqalgan bo'lib, ma'lum ijodiy jihatlariga ega bo'lganligi bois hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan. O'rta asrga kelib, kasbiy ta'lim-tarbiya kichik guruhlar shaklida o'tkazila boshlagan.chunki bu davrda sanoat ishlab chiqarishi yo'lga qo'yilayotgan davr edi.

**2.Kasb-hunar ta'limini tashkil qilish shakllari.**

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida chex pedagogi Y.A.Komenskiy sinf-dars tizimini nazariy jihatdan isbotlab berdi.

Hozirgi paytda kasbiy ta'limning tashkiliy shakllari quyidagi hususiyatlariga binoan turlanadi:

Tahsil oluvchilar soniga ko'ra-ommaviy, jamoaviy, guruhli, individual.

O'qitish joyiga ko'ra-ta'lim-tarbiya muassasalarida va ta'lim muassasalaridan tashqarida (o'quv ustaxonalarida, mashq maydonlarda, korxonalarda, uy ishlari, sayohat va shu kabilar).

O'quv vaqtining davomiyligiga ko'ra-45 minutlik, juftlik (90min), qisqartirilgan (70 minutlik), qo'ng'iroqsiz.

□